

**HUQUQSHUNOSLIK FANLARINI O‘QITISHNING
ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI**

Xusanova Dilnoza Alimqul qizi

*O‘zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti
2-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim va tarbiya jarayonida huquqshunoslik fanlarini o‘qitishning ahamiyati va dolzarbliги haqida batafsil yoritilgan. Huquqshunoslik fanlarini o‘qitish jarayonida qo‘llash zarur bo‘lgan zamonaviy texnologiyalar yuzasidan taklif, tavsiya va xulosalar berilgan. Sohadagi muammolarini yechish borasida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ishlarning nazariy asoslari o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: metodika, ta’lim, jamiyat, texnika-texnologiya, Qonun, taraqqiyot, huquqiy ta’lim modeli, demokratiya, innovatsiya.

Аннотация. В данной статье подробно описывается важность и актуальность преподавания юридических наук в процессе образования и обучения. Даны предложения, рекомендации и выводы относительно современных технологий, которые необходимо использовать в процессе преподавания юридических наук. Изучены теоретические основы предстоящих работ по решению проблем в данной области.

Ключевые слова: методология, образование, общество, технология, право, развитие, модель юридического образования, демократия, инновации.

Abstract. This article describes in detail the importance and relevance of teaching legal sciences in the process of education and training. Proposals, recommendations, and conclusions are given regarding the modern technologies that need to be used in the process of teaching the legal sciences. The theoretical basis of the work to be done to solve the problems in the field has been studied.

Keywords: methodology, education, society, technology, law, development, model of legal education, democracy, innovation.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlatni barpo etishda bosh huquqiy omil hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunlari va qonunosti hujjatlari shuningdek, huquqshunoslik fanlarining jamiyatdagi o‘rni va ahamiyatini, ma’no-mazmuni hamda mohiyatini uzlucksiz o‘rganish huquqshunoslik fanlarini o‘qitish va ularni amaliyotga tatbiq etish zaruratini keltirib chiqaradi. “Huquqshunoslik fani inson dunyoqarashi, uning huquq va davlat to‘g‘risidagi tasavvuri, tushuncha va bilimlari shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Huquqshunoslikning g‘oyaviy ta’siri insonning huquqiy madaniyati rivojlanishiga,

huquq talablarini qadrlab, unga rioya etishiga yordam qiladi. Bu bilan jamiyatda huquqiy axloq va huquq-tartibot qaror topishiga imkon yaratadi”.[5] 2018-yil 22-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5308-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturida ham yuqori malakali yuridik kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan. 2018-yil 13-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarori asosida yuridik ta’lim olishda keng imkoniyatlar yaratilishi belgilangan edi. Ushbu Qarorni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 24-iyuldagagi 573-sonli qarori qabul qilinganligi va ushbu qaror asosida “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi yuridik kollejlari bitiruvchilarini Toshkent davlat yuridik universitetiga bakalavriat bosqichiga qabul qilish to‘g‘risida”gi Nizom va har bir viloyatda yuridik kollejlar tashkil qilinganligi yuridik fanlarni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlarga misol sifatida keltirib o‘tishimiz mumkin. Joriy qilinayotgan islohotlar mamlakatimizda huquq sohasini rivojlantirish, aholi orasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, malakali huquqiy kadrlarni tayyorlash uchun asos vazifasini o‘tamoqda. Huquqiy fanlarni o‘qitishning yangi usul va uslublarini ishlab chiqish, shaxslarda Konstitutsiya va Qonunlarga hurmat hissini shakllantirish dolzarb va muhim sanaladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonining 20-maqsadida: “Aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va ta’lim tashkilotlari bilan o‘zaro samarali hamkorligini yo‘lga qo‘yish”— ustuvor maqsad qilib mustahkamlandi.[2] Har qanday ta’lim va tarbiya to‘g‘ridan-to‘g‘ri ustuvor maqsadlarni belgilashga, ya’ni, qoida tariqasida, davlatdan kelib chiqadigan va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari bilan shakllanadigan maqsadlarni belgilashga bog‘liq. Huuqshunoslik fanlarini o‘qitishning zamonaviy, taraqqiy etgan davlatlar tajribalaridan foydalangan holda texnologiyalarini joriy etish zarur.

Metodlar

Har qanday fanning zamirida, qoida tariqasida, butun bir tamoyillar, yo‘nalishlar tizimi - boshlang‘ich tushunchalar mayjud bo‘lib, bu fan bundan keyin qanday rivojlanishiga, bugungi kunda bizga qanday imkoniyatlar va qulayliklar berishiga bog‘liq. Huuqshunoslik fanlarini o‘qitishning samarali va sifatli metodika va usullaridan foydalinish tahsil oluvchilarning bilish qobiliyatlari, ularning yosh xususiyatlari, organizmning fiziologik xususiyatlariga asoslanadi. Shu munosabat bilan boshlang‘ich maktabda huquqni o‘qitish o‘rta maktabdagi jarayondan keskin farq qiladi. Huquqiy ta’lim samaradorligi talabalarning erishgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasi bilan baholanadi, shuning uchun o‘qitishning zamonaviy metodikasi, huuqshunoslik sohasida ta’lim sifatini diagnostika qilishning yaxlit

mexanizmlari ishlab chiqilgan. Huquqni fan sifatida o‘qitish metodikasi doimiy ravishda izchil rivojlantirilishi va takomillashtirilishi joiz. Huquqshunoslik fanini o‘qitishning uslubiy texnikasi va tashkiliy shakllari tizimini rivojlantirish, takomillashtirilgan o‘quv qo‘llanmalarini yaratish, shuningdek malakali yuridik o‘quv kurslarini o‘qitishni keng joriy etish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 60-moddasida: “Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar”[2] , – deya belgilab, mustahkamlab qo‘yilganligi fuqarolardan huquqiy bilim va ko‘nikmalarini talab etadi. Jamiyat a’zolarining huquqiy ong va madaniyatini shakllantirishni ta’minlaydigan huquqiy ta’limni o‘qitishning zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish muhim sanaladi.

Huquqiy fanlarni ta’lim tizimida izchil joriy etish, zamonaviy usul va metodikalarini ishlab chiqishning dolzarb ahamiyatini anglagan holda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarni amalga joriy etish zarur:

- jamiyatning huquqiy ong va huquqiy madaniyati darajasini oshirish;
- o‘z va o‘zgalarning qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qodir fuqaroni tarbiyalash, uning faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish;
- malakali, yetuk huquqiy kadrlarni tayyorlash;
- qonuniy xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirish, mamlakat qonunlari va xalqaro huquqni hurmat qilish;
- zo‘ravonlik, nizolar, jinoyatlarga toqatsizlik muhitini shakllantirish;
- milliy va demokratik an’ana va qadriyatlarni o‘rganish, ular asosida qonunni takomillashtirish yoki uning yangicha munosabatini shakllantirish.

Bugungi kunda ta’lim muasasalarida huquqshunoslik fanlarini o‘qitishning turli ta’lim texnologiyalari va metodlarini qo‘llash samarali natija beradi. Bularga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

- a) ma’ruzalar;
- b) seminar mashg’ulotlari;
- c) interfaol keys-stadilar;
- d) guruhlarga bo‘lingan holda ishlash;
- e) loyihalari va startup g‘oyalari.

Huquqiy fanlarni o‘qitish metodikasini qo‘llash, avvalo, maktabdagagi zamonaviy bilim va tajribaga ega huquq o‘qituvchisining mahoratiga bog‘liq. Har bir o‘qituvchi huquqiy ta’lim va tarbiya sohasidagi hamkasblarining tajribalari bilan doimiy ravishda tanishib borish lozim. Zero, tajriba-sinov ishlari natijalariga e’tibor qaratish, fan qoidalarini tahlil qilish va qo‘llashni o‘rganish muhim sanaladi. Tajribali huquqiy kadrlarning faoliyati shuni ko‘rsatadiki, o‘qituvchi va o‘quvchining muayyan mavzu ustida mustaqil ishlashi, yangi darsliklar yoki o‘qitish usullarini sinab ko‘rishi o‘qitish jarayonining sifatli va samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Huquqiy fanlarni o‘qitishning

zamonaviy uslublari mutaxassislarning o‘z ishlarini ushbu fanning turli jabhalariga bag’ishlagan faoliyati tufayli rivojlanadi.

Natijalar va muhokama

Ushbu masala yuzasidan qilingan tahlillar natijasiga ko‘ra huquqshunoslik fanlarining zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyatini barpo etishda, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, sud-huquq islohotlarini amalga oshirishning huquqiy asoslarini yaratishda munosib hissa qo’shamdi deb aytish mumkin.

Birinchidan, huquqiy ta’lim va tarbiyaning malakali tizimini barpo etish bo‘yicha o‘quvchilarga aniq ilmiy tavsiyalar berish imkonini beradi.

Ikkinchidan, xorijda va mamlakatimizda huquqiy ta’lim tajribasi umumlashtirilib, tizimlashtirilib o‘zining yuksak samaralarini bergan muayyan qonuniyatlar yuzaga keladi.

Uchinchidan, davlat Konstitutsiya va qonunlarni, shaxsning huquq va erkinliklarini hurmat qilish va ularga rioya qilish zarurligini ta’minkaydi.

Mamlakatimizda qonunchilikni ta’minalashda, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishda, ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirishda huquqshunoslik fanlarining o‘rni beqiyos. Huquq fanini o‘qitish metodikasi doirasida huquq fanidan aniq o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish, talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, shuningdek, o‘qituvchi va talaba mehnatini ilmiy tashkil etish masalalarini ko‘rib chiqish joiz. Bu borada har qanday professional hudud huquqiy ta’limning o‘ziga xos uslubini yaratishni o‘rganishi kerak.

“Birinchidan, mamlakatimizda amalga oshiriliyotgan islohotlarni huquqiy jihatdan ta’minalash uchun avvalo, yuridik fan integratsiya qilinishi lozim. Ya’ni, ijtimoiy munosabatlar tizimlashtirilgani holda, bir-biriga yaqin va turdosh fanlar umumlashtirilishi kerak.

Ikkinchidan, amaldagi qonunchilik to‘liq xatlovdan o‘tkazilishi, birbirini takrorlaydigan normalar, qoidalar yoki prinsiplar aniqlanishi lozim. Shuningdek, amalda iste’molda ishlatilmaydigan so‘zlar va tushunchalar chiqarilishi kerak.

Uchinchidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlaydigan qonunlarni yaratish uchun bir sohani tartibga soladigan normativ-huquqiy hujjatlar bazasida yangi Kodekslar yaratilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, huquqiy fanning istiqboli bevosa zamonaviy fikrlaydigan, mustaqil va tezkorlik bilan qarorlar qabul qila oladigan, yuridik hujjatlar loyihibalarini yarata oladigan, o‘z sohasining eksperti hisoblangan huquqshunos kadrlarga bog‘liq. Bugungi yuridik ta’limni tubdan o‘zgartirishni davrning o‘zi taqozo qilmoqda.”[3]

Huquqiy fanlarni o‘qitishda ta’limning maqsadlari quyidagilarda o‘z aksini topadi:

1. Huquqni o‘qitish metodikasi, huquqiy faoliyat usullarini o‘rganish;

2. Huquqni qanday o‘rgatish, uning qobiliyatlarini qanday rivojlantirish, umumiy ta‘limni shakllantirishni tushunishga imkon yaratish.

Huquqiy fanlarni o‘qitishning zamonaviy metodikasi va texnologiyalari quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

a) huquqiy ta’lim modellarining o‘zgaruvchanligi va muqobilligi huquqni o‘qitish sohasida juda ko‘p turli xil yondashuvlar mavjudligini anglatadi va ular amalda amalda mavjud.

b) huquqni o‘qitishning individuallashuvi va tabaqalanishini ta’minlaydigan talabaga yo‘naltirilgan yondashuvlar ya’ni har bir talaba bilan uning qobiliyat darajasi, huquqiy materialni idrok etish qobiliyatidan kelib chiqqan holda ishslash, bu o‘quv jarayoniga kiritilgan har bir kishini rivojlantirish va tayyorlashga imkon beradi.

c) talabalarning ijtimoiy tajribasidan kelib chiqqan holda bilim faolligini faollashtirishning maksimal tizimi bu maktab o‘quvchilari bilimlarini mustaqil ravishda egallashni o‘rganishlari, ta’lim faoliyatida faol ishtirot etishlarini ta’minlashdir.

Xulosa

Mamlakatimizda huquqiy tizimni rivojlantirish, huquqiy normalarning adolatli, shaffof tarzda bo’lishi, malakali huquqiy kadrlarni tayyorlash uchun huquqiy fanlarni keng ko‘lamda o‘qitish lozim. Dars mashg‘ulotlarining sifatli amalga oshirilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilar uchun tayyorlanayotgan o‘quv-uslubiy materiallarning sifatiga, shuningdek, kerakli hajmdagi adabiyotlar, me’yoriy hujjatlar, turli didaktik qo‘llanmalar mavjudligi va, albatta, o‘qituvchilarning metodik mahoratiga bog‘liq. Huquqiy ta’limda keng tarqalgan interfaol usullarni qo‘llash samarali natija beradi. Ushbu usullardan biri modellashtirish, ya’ni real hayotdagi ob’ektlar, jarayonlar yoki hodisalar uchun tushuntirishlar olish uchun modellarni qurish va o‘rganish. Ushbu usulning maqsadi muammoli vaziyatlarni samarali hal qilishdir. Yana bir metodik usullardan biri biznes o‘yini huquqiy tarbiyaning keng tarqalgan usullaridan biri hisoblanadi. Ishbilarmonlik o‘yini - bu muayyan vaziyatga, real sharoitlarga taqlid qilish. Maqsad - aniq operatsiyalarni ishlab chiqishda real sharoitlarga taqlid qilish sharoitida professional kompetentsiyalarni shakllantirish; tegishli ish jarayonini modellashtirish; faoliyatning huquqiy sohasida qarorlar qabul qilish va qabul qilishni o‘rganish. Huquqiy fanlar ta’limning zamonaviy usullaridan, jumladan, telekommunikatsiya texnologiyalaridan, masofaviy yuridik ta’lim va internet tarmog‘ida ishslashdan foydalanish huquqiy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda yordam beradi. Huquq faniga oid yangi elektron darsliklar, multimedia dasturlari boshqa o‘qitish metodikasini tatbiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy fanlarni o‘qitish metodikasining eng muhim tarkibiy qismlari:

1. Fanni ratsionalizatsiya qilish, o‘qitishning maqsad va vazifalarini belgilash; mavzuni tuzish;
2. O‘qitish uslub va usullarini aniqlash;

3. Baholash vositalarini aniqlash va ulardan foydalanish;

4. O‘quv faoliyatini rejalashtirish.[6]

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi paytlarda huquqiy ta’limning chuqur rivojlanish tendensiyasi kuzatilmoqda, pedagogika va huquq fanlarini o‘qitish metodida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu jamiyatda insonparvarlik qadriyat va an’analarining tobora kengayib borishi, Konstitutsiya, qonunlar va undagi huquqiy normalarning xalq ommasiga yetarlicha yetkazilishi, ta’lim metodologiyasini takomillashtirishga e’tiborning kuchayishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, u atrofdagi dunyoning ilmiy va ijtimoiy tabiatini tushunish darajasini aks ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi, 01.05.2023y.
3. To‘xtayev Sardor Sulton o‘g‘li. YURIDIK FAN VA HUQUQNI QO‘LLASH AMALIYOTINING DOLZARB MUAMMOLARI. Science and innovation. 77-b.
4. “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3666-son qarori.
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Huquqshunoslik>.
6. <https://goaravetisyan.ru/uz/vzaimosvyaz-metodiki-prepodavaniya-prava-s-drugimi-naukami-metodika>.